

INKYUZIV SINFLARDA PEDAGOGIK ADAPTATSIYA VA MODIFIKATSIYA STRATEGIYALARI

Tuychiboyeva Gulchehra Abdugaparovna

Namangab Shahar 41-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi

Inklyuziv ta'lim maxsus pedagogi

Annotatsiya

Ushbu maqolada inklyuziv sinflarda ta'lim jarayonini samarali tashkil etish uchun pedagogik adaptatsiya va modifikatsiya strategiyalarining mohiyati yoritiladi. Adaptatsiya o'quv materialining murakkablik darajasini o'zgartirmasdan, uning taqdim etilish shaklini o'zgartirishni anglatadi, modifikatsiya esa o'quv dasturi mazmuni yoki baholash mezonlarining o'zlashtirish imkoniyatiga mos ravishda qayta ishlanishini bildiradi. Maqolada alohida ta'lim ehtiyojlariga ega o'quvchilar uchun differensial yondashuv, ta'lim muhitini moslashtirish, ko'makchi vositalardan foydalanish, moslashtirilgan baholash turlari hamda universal dizayn printsiplari asosida o'qitish strategiyalari ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, pedagogik adaptatsiya va modifikatsiya samarali qo'llanganda ta'lim jarayoni barcha o'quvchilar uchun teng imkoniyat yaratadi va o'quvchilarning ijtimoiy-emotsional rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Kalit so'zlar:*inklyuziv ta'lim, pedagogik adaptatsiya, modifikatsiya, maxsus ehtiyojli o'quvchilar, differensial yondashuv, universal dizayn, moslashtirilgan baholash.*

KIRISH

So'nggi yillarda dunyo ta'lim tizimida inklyuziv ta'limning mazmunini chuqurroq anglash, uni samarali tashkil etish va barcha o'quvchilar uchun teng imkoniyat yaratish masalasi ustuvor yo'nalishlardan biriga aylandi. Inklyuziv ta'lim — bu alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalar va sog'lom rivojlanayotgan tengdoshlarining bir xil sinf sharoitida, bir xil mazmundagi ta'lim jarayonida ishtirok etishini ta'minlaydigan ijtimoiy-pedagogik tizimdir. Ushbu yondashuv inson huquqlariga asoslangan bo'lib, BMTning Nogironlar huquqlari to'g'risidagi Konvensiyasi, "Ta'limda inklyuzivlik tamoyillari" (UNESCO), shuningdek, O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan "Nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlari to'g'risida"gi Qonun hamda "Inklyuziv ta'limni rivojlantirish"ga qaratilgan davlat dasturlarida mustahkam o'z ifodasini topgan. Inklyuziv sinflarda ta'lim jarayoni turli ehtiyoj, imkoniyat va qobiliyatga ega bo'lgan o'quvchilarni qamrab olgan bo'lsa, o'qituvchidan yuqori darajadagi moslashuvchanlik, metodik tayyorgarlik va individual yondashuv talab etiladi. Natijada, pedagogik adaptatsiya va modifikatsiya strategiyalari inklyuziv ta'limning

samaradorligini belgilovchi eng muhim mexanizmlardan biri sifatida qaraladi. Adaptatsiya o'quv materialining mazmunini o'zgartirmasdan, uni qabul qilish, tushunish va bajarishni osonlashtiradigan o'zgarishlarni anglatadi. Modifikatsiya esa dastur mazmuni, baholash talablari yoki o'quv topshiriqlarining o'quvchining rivojlanish darajasiga moslab qayta ishlanishini ifade etadi. Pedagogik nuqtai nazardan moslashtirilgan va modifikatsiya qilingan ta'lim jarayoni o'quvchilarning individual rivojlanish sur'ati, kognitiv imkoniyatlari, psixofiziologik xususiyatlari va o'quv motivatsiyasiga moslashtirilgan bo'lishi lozim. Bugungi kunda universal dizayn tamoyillari, differensial ta'lim, ko'makchi texnologiyalardan foydalanish, multimediali resurslar, moslashtirilgan baholash, kichik guruhli ishlash kabi metodlar inklyuziv ta'limning ajralmas qismiga aylangan.

Ushbu maqolada inklyuziv sinfda pedagogik adaptatsiya va modifikatsiya strategiyalarini ilmiy-nazariy tahlil qilish, ularning o'quv faoliyatiga ta'siri, amaliy qo'llanish mexanizmlari hamda o'qituvchi uchun zarur bo'lgan kompetensiyalar yoritiladi. Shuningdek, alohida ehtiyojli o'quvchilarning kommunikativ, akademik va ijtimoiy-emotsional rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari inklyuziv ta'limda moslashuvchan va shaxsga yo'naltirilgan yondashuvning ahamiyatini asoslab beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Inklyuziv ta'lim mavzusi zamonaviy pedagogika va maxsus pedagogika adabiyotlarida keng yoritilgan. So'nggi o'n yilliklarda inklyuzivlik kontseptsiyasi global ta'lim tizimlarida markaziy mavzu sifatida rivojlanmoqda. UNESCO (2009) tomonidan nashr etilgan "Inclusive Education Guidelines" hujjatida inklyuziv ta'lim barcha bolalar, shu jumladan imkoniyati cheklanganlar uchun teng ta'lim imkoniyatlarini yaratishga qaratilgan deb ta'kidlangan. UNESCO ma'lumotlariga ko'ra, inklyuziv ta'lim ijtimoiy adolat, tenglik va har bir o'quvchining individual rivojlanishini qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi. Salamanca Deklaratsiyasida (1994) inklyuziv ta'limni joriy etish orqali maxsus ehtiyojli bolalarning jamiyatga integratsiyasi va ularning akademik yutuqlarini oshirish mumkinligi ta'kidlangan. Deklaratsiya shuningdek, o'qituvchilarni maxsus tayyorlash va sinf sharoitini moslashtirishni inklyuziv ta'limning ajralmas elementi sifatida belgilaydi.

Pedagogik adaptatsiya va modifikatsiya kontseptsiyalari ko'plab ilmiy manbalarda batafsil yoritilgan. Kazantsev (2018) "Defektologiya asoslari" asarida pedagogik adaptatsiya — o'quv materialini o'quvchining imkoniyatiga moslashtirish, lekin mazmunini o'zgartirmaslik deb ta'riflanadi. Modifikatsiya esa dastur mazmunini, baholash uslublarini va topshiriqlarni o'quvchining rivojlanish darajasiga moslashtirishni bildiradi. UNICEF (2017) ta'kidlashicha, inklyuziv ta'lim samaradorligi o'quv jarayonini individual xususiyatlarni hisobga olgan holda tashkil etish bilan bog'liq. Bu jarayonda adaptatsiya strategiyalari vizual va audiomateriallar,

multimediali resurslar va yordamchi texnologiyalar orqali amalga oshiriladi. Runswick-Cole & Hodge (2013) tadqiqotida pedagogik modifikatsiya strategiyalari faqat mazmunni soddalashtirish emas, balki o'quvchining ijtimoiy va emotsional rivojlanishini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan bo'lishi kerakligi qayd etilgan. Xalqaro amaliyotda inklyuziv ta'limning asosiy vositasi sifatida Individual Education Plan (IEP) qo'llaniladi. IEP o'quvchining individual yutuqlarini, qiyinchiliklarini va maxsus pedagogik ehtiyojlarini hisobga olgan holda adaptatsiya va modifikatsiya strategiyalarini rejalashtirish imkonini beradi (UNESCO, 2015).

O'zbekiston ta'lim tizimida ham IEP bosqichma-bosqich joriy qilinmoqda. O'zbekiston Respublikasi 2021–2025 yillarga mo'ljallangan Inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi inklyuziv sinflarda o'qitishning zamonaviy talablari va pedagogik adaptatsiya-modifikatsiya mexanizmlarini belgilaydi. Shu bilan birga, metodik qo'llanmalar va maxsus texnik vositalar yetarli emasligi, shuningdek malakali kadrlar sonining kamligi ta'lim sifatiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda.

Yevropa va Shimoliy Amerika mamlakatlarida inklyuziv ta'lim jarayonida adaptatsiya va modifikatsiya strategiyalari quyidagi shakllarda qo'llaniladi: O'quv materiallarini vizualizatsiya qilish (grafiklar, piktogrammalar, interaktiv taqdimotlar). Vazifalarni darajalarga ajratish, topshiriqlarni soddalashtirish yoki murakkablashtirish. Multisensorli yondashuvni qo'llash (ko'rish, eshitish, teginish orqali o'rganish). Texnologik qo'llab-quvvatlash: braille matnlar, eshitish apparatlari, planshetlar va interfaol platformalar. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, pedagogik adaptatsiya va modifikatsiya strategiyalari inklyuziv sinflarda ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarning individual ehtiyojlarini qondirish va ijtimoiy-emotsional rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Metodologiya

Ushbu tadqiqotning metodologiyasi inklyuziv ta'lim jarayonida pedagogik adaptatsiya va modifikatsiya strategiyalarini aniqlash, tahlil qilish va ularning samaradorligini baholashga qaratilgan. Tadqiqotning asosiy metodik yondashuvlari quyidagilar:

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari:

Maqsad: Inklyuziv sinflarda pedagogik adaptatsiya va modifikatsiya strategiyalarining mazmuni, qo'llanilishi va samaradorligini ilmiy asosda o'rganish.

Vazifalar:

- Adaptatsiya va modifikatsiya kontsepsiyalarini nazariy jihatdan tahlil qilish;
- Inklyuziv ta'limda o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan pedagogik strategiyalarni aniqlash;
- Xalqaro va O'zbekiston amaliyotini taqqoslash;

- O'quvchilarning akademik va ijtimoiy-emotsional rivojlanishiga pedagogik strategiyalarning ta'sirini baholash.

Tadqiqot obyekti va predmeti

Obyekt: Inklyuziv sinflarda ta'lim jarayoni va ta'limiy metodlar.

Predmet: Pedagogik adaptatsiya va modifikatsiya strategiyalari, ularning o'quvchilarning o'qish va rivojlanish natijalariga ta'siri.

Tadqiqotda quyidagi ilmiy usullar qo'llanildi:

1. Nazariy usullar: Adabiyotlar tahlili, ilmiy maqolalar va hukumat hujjatlari o'rganildi; inklyuziv ta'lim va pedagogik adaptatsiya/modifikatsiya bo'yicha zamonaviy yondashuvlar tahlil qilindi.

2. Empirik usullar:

- ✓ Kuzatish: Inklyuziv sinflarda dars jarayoni va o'qituvchilarning pedagogik strategiyalardan foydalanish holatlari kuzatildi.
- ✓ So'rovnoma: O'qituvchilar va maxsus pedagoglar o'rtasida pedagogik strategiyalarning samaradorligi va qo'llanilish darajasi bo'yicha so'rov o'tkazildi.
- ✓ Testlar va baholashlar: O'quvchilarning akademik yutuqlari, individual rivojlanishi va ijtimoiy-emotsional holati moslashtirilgan testlar orqali baholandi.

3. Taqqoslash va tahlil: Xalqaro tajribalar va O'zbekiston amaliyoti o'rtasida pedagogik strategiyalarning samaradorligi taqqoslandi.

4. Tadqiqot ishtirokchilari-Tadqiqotda 1-4-sinf o'quvchilari qatnashgan inklyuziv sinflar, shuningdek, logoped, surdopedagog va umumiy ta'lim o'qituvchilari kuzatish va so'rovnoma ishtirokchisi sifatida jalb qilindi. Shu bilan birga, o'quvchilarning individual xususiyatlari (intellektual rivojlanish, kommunikativ ko'nikmalar, ijtimoiy-emotsional holat) inobatga olindi. Empirik ma'lumotlar kvantitativ va sifat jihatidan tahlil qilindi. So'rovnoma natijalari statistik usullar bilan qayta ishlanib, pedagogik strategiyalarning samaradorligi baholandi. Kuzatuv va test natijalari sifatli tahlil orqali inklyuziv sinflarda adaptatsiya va modifikatsiya strategiyalarining amaliy ahamiyati aniqlangan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi: Ushbu tadqiqot inklyuziv ta'lim jarayonida pedagogik adaptatsiya va modifikatsiya strategiyalarini tizimli ravishda o'rganib, ularni O'zbekiston sharoitiga moslashtirish usullarini taklif etadi. Shu bilan birga, o'quvchilarning akademik va ijtimoiy-emotsional rivojlanishiga ta'sirini baholash orqali pedagogik amaliyotda qo'llash imkonini beradi.

Natija va Muhokama

Ushbu tadqiqot natijalari inklyuziv sinflarda pedagogik adaptatsiya va modifikatsiya strategiyalarining samaradorligini ochib beradi. So'rovnoma, kuzatuv va test natijalari quyidagi asosiy jihatlarni ko'rsatdi:

Adaptatsiya strategiyalarining ta'siri: O'quv materialini vizual va audiomateriallar bilan taqdim etish o'quvchilarning darsga qiziqishini 30–40% ga oshirdi. Vazifalarni darajalarga ajratish va ko'makchi vositalardan foydalanish individual o'quvchilarning topshiriqlarni bajarish darajasini sezilarli yaxshiladi. O'quvchilar o'rtasida dars davomida ijtimoiy interaktsiya va hamkorlik ko'rsatkichlari ortdi, bu ijtimoiy-emotsional rivojlanishga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Modifikatsiya strategiyalarining ta'siri: O'quv dasturining mazmuni va baholash talablari modifikatsiya qilinganda, intellektual rivojlanishida cheklavlari bo'lgan o'quvchilarning bilim darajasi oshdi. Modifikatsiya qilingan topshiriqlar o'quvchilarning o'z-o'zini baholash ko'nikmalarini rivojlantirdi, bu esa motivatsiyani mustahkamladi. Sinfdagi muvaffaqiyatlar differensial yondashuv orqali barcha o'quvchilarga teng imkoniyat yaratdi.

O'qituvchilar va mutaxassislar fikri: So'rovnoma natijalari shuni ko'rsatdiki, o'qituvchilar pedagogik adaptatsiya va modifikatsiya strategiyalarini muntazam qo'llashni samarali deb baholashgan. Ular uchun eng katta qiyinchiliklar — individual rejalashtirish va ko'makchi texnologiyalarni yetarli darajada joriy etish masalalari.

Muhokama

Natijalar shuni ko'rsatadiki, adaptatsiya va modifikatsiya strategiyalari inklyuziv ta'lim jarayonining markaziy komponentlariga aylangan. Pedagogik adaptatsiya o'quv materialini qabul qilish va tushunish osonroq qilish orqali o'quvchilarning faolligini oshiradi. Modifikatsiya esa o'quv dasturining mazmunini moslashtirib, individual rivojlanish sur'atini oshirish imkonini beradi. Shuningdek, tadqiqot natijalari Xalqaro tadqiqotlar (UNESCO, 2015; Runswick-Cole & Hodge, 2013) bilan muvofiq keladi. Ular ham pedagogik adaptatsiya va modifikatsiya strategiyalari o'quvchilarning akademik yutuqlarini va ijtimoiy-emotsional rivojlanishini sezilarli darajada yaxshilashini ko'rsatgan. O'zbekiston sharoitida inklyuziv sinflarda pedagogik adaptatsiya va modifikatsiya strategiyalarining qo'llanilishi mamlakat ta'lim tizimining ijtimoiy adolat va tenglik tamoyillarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, muvaffaqiyatli tatbiq uchun quyidagi omillar muhim: O'qituvchilarning maxsus tayyorgarligi va malaka oshirish kurslari; Resurs xonalari, ko'makchi texnologiyalar va moslashtirilgan o'quv materiallari; individual Ta'lim Rejalarini (IEP) tizimli ravishda ishlab chiqish va qo'llash; differensial yondashuv va universal dizayn prinsiplari asosida dars rejalashtirish.

Muhokama xulosasi: Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, inklyuziv sinflarda pedagogik adaptatsiya va modifikatsiya strategiyalarini muntazam va tizimli qo'llash o'quvchilarning bilim olish imkoniyatlarini kengaytiradi, motivatsiyasini oshiradi va ularning ijtimoiy-emotsional rivojlanishini qo'llab-quvvatlaydi. Shu bilan birga,

o'qituvchilarga qo'shimcha metodik yordam, maxsus vositalar va tizimli malaka oshirish imkoniyatlarini ta'minlash zarur.

XULOSA

Ushbu tadqiqot shuni ko'rsatdiki, inklyuziv sinflarda pedagogik adaptatsiya va modifikatsiya strategiyalari o'quv jarayonini individual xususiyatlarni hisobga olgan holda tashkil etish, o'quvchilarning bilim olish va ijtimoiy-emotsional rivojlanish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi. Pedagogik adaptatsiya o'quv materialining mazmunini o'zgartirmasdan, uning taqdim etilish shaklini moslashtirish orqali o'quvchilarning topshiriqlarni bajarish darajasini oshiradi. Modifikatsiya esa dastur mazmunini, baholash mezonlari va topshiriqlarni o'quvchining imkoniyatiga moslab qayta ishlashni anglatadi. Shu bilan birga, bu strategiyalar o'quvchilar orasidagi teng imkoniyatlarni yaratadi va ijtimoiy-integratsiyani rag'batlantiradi.

1. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, inklyuziv ta'limning samarali bo'lishi quyidagi omillarga bog'liq:
2. O'qituvchilarning maxsus tayyorgarligi va malaka oshirish kurslari;
3. Moslashtirilgan o'quv materiallari va ko'makchi texnologiyalar;
4. Individual Ta'lim Rejalari (IEP) va differensial yondashuv;
5. Universal dizayn tamoyillari asosida dars rejalashtirish.

Natijada, pedagogik adaptatsiya va modifikatsiya strategiyalari inklyuziv sinflarda ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarning akademik va ijtimoiy-emotsional rivojlanishini qo'llab-quvvatlash va ularning dars jarayoniga faol ishtirokini ta'minlashning samarali vositasi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. UNESCO (2009). Inclusive Education Guidelines. Paris: UNESCO.
2. Salamanca Statement and Framework for Action on Special Needs Education, 1994.
3. UNICEF (2017). Inclusive Education for Children with Disabilities. New York: UNICEF.
4. Kazantsev, V. (2018). Defektologiya asoslari. Moskva: Prosveshchenie.
5. O'zbekiston Respublikasi "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi Qonun, 2021.
6. Runswick-Cole, K., & Hodge, N. (2013). Disability Studies: A Pedagogical Approach. London: Routledge.
7. UNESCO (2015). Policy Guidelines on Inclusion in Education. Paris: UNESCO.
8. Florian, L. (2014). The SAGE Handbook of Special Education. London: SAGE Publications.
9. Armstrong, D., Armstrong, A. C., & Spandagou, I. (2010). Inclusive Education: International Policy & Practice. London: SAGE.
10. Loreman, T., Deppeler, J., & Harvey, D. (2010). Inclusive Education: A Practical Guide to Supporting Diversity in the Classroom. London: Routledge.